

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rmi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Dildora PO‘LATOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası v.b. dotsenti

XALQ TA'LIMI TIZIMIDA “BARKAMOL AVLOD” MAKTABLARI

Annotatsiya

Maqolada xalq ta'limi tizimida maktabdan tashqari ta'limning “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyati, bolalar iqtidori va qobiliyatlarining rivojlanishidagi roli, ahamiyati, maktablarda STEAM ta'limi dasturi, ommaviy tadbirlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. STEAM, maktab, avlod, to'garak, qobiliyat, imkoniyat.

В данной статье представлена информация об интеллектуальном развитии способностей детей во внешкольных образовательных учреждениях и программе STEAM.

Ключевые слова. STEAM, школа, поколения, кружок, способность, возможность.

This article provides information on the development of childrens abilities in out of school educational institutions and STEAM programs.

Key words. STEAM, school, child, circle, ability, opportunity.

Ta'lim turlari sirasiga kiruvchi Maktabdan tashqari ta'lim tizimi o'ziga xos tizim bo'lib, bola rivojlanishi, iqtidori, qobiliyatini belgilab, rivojlantirib beruvchi katta maktabdir. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4467-son Qaroriga muvofiq maktabdan tashqari ta'limi tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat talablarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

“Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – aql-zakovat va ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik esa bilimsizlikdir!”. Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”, – deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida.

Darhaqiqat, farzandlarimizning iqtidor va qobiliyatlarini tarbiyalash, ularning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish bevosita maktabdan tashqari ta'lim tizimi oldida turgan yuksak vazifalardandir. Shuningdek, davlat rahbari boshchiligidagi yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qabul qilingan besh tashabbus yoshlarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4467-son Qarorida maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini yanada oshirish, o'quvchi yoshlarda

yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, intellektual barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga to'xtalib o'tilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi texnik ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya bo'yicha "Barkamol avlod" bolalar maktablari.

"Barkamol avlod" tuman (shahar) bolalar markazlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar "Barkamol avlod" bolalar markazlari negizida "Barkamol avlod" bolalar maktablari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi axborot-resurs markazlari negizida "Bolalar kutubxonalari".

2020-2023-yillarda Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida tizimli ravishda bolalar turizmini rivojlantirish maqsadida "Barkamol avlod" bolalar maktablari huzurida 100-200 o'rinli "Bolalar sayyohlik bazalari"ni tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi.

Maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan yakka tartibdagi, ortib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

Maktabdan tashqari ta'lim ta'lim tizimining shunday bir bo'g'iniki, bolalar va kattalarning intellektual qobiliyatini rivojlantiruvchi, har tomonlama barkamol, ma'nan yetuk, jismoniy va kasbiy mahoratga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini har tomonlama qondirish, davlat ta'lim standartlari va talablari bo'yicha qo'shimcha ta'lim berish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, samarali tashkil etishga qaratilgan ta'limiy maskandir.

Maktabdan tashqari ta'lim bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun xizmat qilar ekan, bu davrda bolaning iqtidor va qizishlarini hisobga olib, uni asta-sekin hayotga tayyorlab boradi, kasbiy ko'nikmalarini shakllantiradi va kasb-hunarga yo'llaydi.

"Barkamol avlod" bolalar maktablarida metodik ishlarni tashkil etish, pedagoglarning metodik faoliyatini samarali olib borish rahbar boshqaruvining muhim jihatlari hisoblanadi.

O'quv jarayonini boshqarish, to'garak ishlarini samarali tashkil etish, maqsadga erishish rahbar boshqaruvining asosiy vazifasi sanalib, har bir rahbar o'zini-o'zi tahlil qilishi, o'z istiqbol rejasini belgilashi, yo'l xaritasini tuzib olmog'i kerak. "Barkamol avlod" bolalar maktabi metodisti o'z ishini rejalashtirishda metodik nazoratni o'z zimmasiga oladi. O'z yo'nalishidagi to'garak rahbarlarining mashg'ulot ishlanmasini kuzatadi va direktor o'rinbosariga tasdiqlatadi, davomatni nazorat etadi, to'garak mashg'ulotlarini tahlil qiladi, to'garak rahbarlariga metodik jihatdan ustozlik qiladi, murakkab mavzular bo'yicha namunalari mashg'ulot ishlanmasini tayyorlaydi, pedagogik va uslubiy kengashlarda muhim masalalar bilan ishtirok etadi, dolzarb mavzularda seminar treninglar tashkil etadi, yillik rejaga masalalar kiritadi, yillik ish rejasini tuzadi, to'garak o'quv rejasini tuzadi, to'garak rahbari ishini ommalashtiradi, hisobotlarni o'z vaqtida tayyorlaydi va topshiradi.

Shuningdek, to'garak rahbari muassasadagi asosiy pedagog kadr sifatida shunday mahoratga ega bo'lmog'i kerakki, uning metodik jihatdan yuksak mahoratga egaligi, kasbiy malakasi, bilimi to'garak kelajagi uchun xizmat qilmog'i kerak. To'garak rahbarining o'quv rejasida o'tiladigan mavzular, o'tkaziladigan nazorat ishlari va ularga ajratilgan soatlar ko'rsatiladi. Ommaviy tadbirlar yig'ma jildida tadbirlar hisoboti, ma'lumotnomalar, ssenariylar, ochiq mashg'ulot bayoni saqlanadi.

"Barkamol avlod" bolalar maktabi pedagog kadrlari o'z kasbiy faoliyatini nazorat qilishi, tahlil etishi, rivojlantirishi muhimdir. Bunda pedagogik diagnostika yaxshi sa-

mara beradi.

Pedagogik diagnostika har bir pedagogni bilish, har birining ko'ngliga yo'l topa olish singari murakkab masalalarni muvaffaqiyatli yechishda rahbar-metodistlarga yordam beradi. U o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini bilishga imkon beradi va shu bilan birga, pedagog kadrlar bilan metodik ishlarining tashkil etilishini yengillashtirib, ularning samarasini oshiradi.

Komenskiy o'qituvchilarni iste'dodsiz yoki kerakli bilimlarga ega emasligini qattiq qoralagan. O'qituvchilik, ustozlik har qanday kasbdan ko'ra yuqori ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi kerakligini, u vijdonli, sof, ishchan, sabotli, axloqli bo'lishini uqtiradi. O'z orqasidan bolalarni ergashtira olishi, otalardek muomala qilishi lozimligini birinchi o'ringa qo'yadi.

Buyuk alloma Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarida, bilim, hunar, uquv – bir-biridan ajratib bo'lmaz jarayonlardir. Insonni inson qilgan ana shu fazilatlar mehnat tufayli vujudga keladi. Ilmiy tilda bu malaka deb ataladi. Inson unumli mehnat qilishni, mehnatining natijasi sifatli bo'lishini istar ekan, albatta, unga malaka kerak.

STEAM ta'limi texnologiya, muhandislik, san'at va matematikadan o'quvchilarni qiziqitirish, tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi foydalanish usuli. STEAM – muhandisi, dizayneri bo'lishidan qat'i nazar, har qanday yoshdagi o'quvchilarga innovatsion va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu dastur orqali bolalar nafaqat ijodkorlik, balki o'ziga ishonch va yetakchilikni namoyish etish ko'nikmalarini ham shakllantiradilar. Bu kelajakda zarur bo'ladigan yetakchilik ko'nikmalaridir. Ular ishonchsizlikni yengib, shaxslararo munosabatlarga kirishib, boshqalar bilan intellektual jihatdan bog'lanadilar. Shuningdek, o'quvchilar milliy qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishib, san'at tarixini o'rganishar ekan, bu orqali madaniy qadriyatlarni egallaydilar va milliy san'atga sodiq fuqaro sifatida shakllanadilar. Ular yaratgan kichik san'at asarlari kelajakda go'zallikni yaratuvchi buyuk shaxs sifatida namoyon bo'lishlarida ilk asar bo'lishi mumkin.

Bolalarning san'at orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlari imkon qadar rivojlantiriladi. Bundan tashqari ular ijro san'ati bilan tanishish paytida faol bo'lishni odat qiladilar, bu sog'lom turmush tarzi va ijobiy turmush tarzini tanlash bo'yicha umrbod amaliyotga aylanadi.

Xorijiy davlatlardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa va san'at bo'yicha o'quv dasturi dasturlarga kiritilganda o'quv natijalari yaxshilangan, chunki bolalar o'qish, yozish va matematikani yanada yaxshiroq o'zlashtirishga erishganlar. Shuning uchun ko'plab maktablar STEAM ta'limiga ko'proq e'tibor berib, bu dasturga mos keladigan o'qitish usullarini tanlaganlar. Chunki uning san'at ta'limiga ko'proq qiziqishni uyg'otishi va bolalarni ko'proq jalb qilishi ayon bo'ldi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu dastur o'quvchilarni tanqidiy fikrlash ko'nikmalarinn rivojlantiradi va san'at, fan, texnologiya, muhandislik va matematikaning birligini aniqlashga yordam beradi. STEAM – bu STEMga san'atni qo'shib, uning afzalliklaridan bahramand bo'lishning bir usulidir. STEAM STEMni yangi natijalarga olib chiqadi. Bu o'quvchilarga ijod jarayonida hamda ushbu muhim sohalarida o'z bilimlarini san'at amaliyotlari, elementlari, dizayn tamoyillari va standartlari bilan birgalikda bog'lab ijod qilishlariga imkon beradi. STEAM erkin ijod qilish uchun sharoit yaratadi, cheklovlarni olib tashlaydi va ularni hayrat, ilhomlanish va yangilik bilan almashtiradi.

“Barkamol avlod” bolalar maktablarida o'quvchi-yoshlarga kasb-hunar sirlarini o'rgatish bilan birga, manaviy-madaniy tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, ommaviy-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchi kundalik hayotining tarkibiy qismiga aylanib bormog'i darkor. Bunday tadbirlar o'quvchilarning ta'lim jarayonida olgan

bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumotlar olish, ularning ma'naviy merosga qiziqishini o'stirish maqsadida tashkil etiladi. Bunda maktabda olinadigan bilim takrorlanmaydi. Aksincha, o'quvchining qiziqishi, mayli, intilishi, tarbiyaviy ehtiyoji asosida tadbirlar uyushtiriladi. Har qanday tarbiyaviy tadbir qiziqarli shakl, o'ziga xos belgilarni, tarbiyaviy xarakterni, ijodiy mehnatni talab etadi. Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Tarbiyaviy tadbirlar asosan muhim sanalarga bag'ishlanadi. Boshqa payt o'quvchilarda tadbir o'tkazishga ehtiyoj kuchli bo'lmaydi.

2. Tadbirlarni bir xil shaklda o'tkazish kerak emas. Chunki bunday tadbir o'quvchilarni zeriktiradi. Masalan, Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan adabiy-badiiy kecha yoki g'azalxonlik tanlovini fevral oyi mobaynida tashkil etgan ma'qul. O'quv yili davomida faqat Navoiy ijodi va faoliyatiga bag'ishlab tadbir o'tkazish ko'zlangan maqsadni bermaydi.

3. Har qanday tarbiyaviy tadbirni ixtiyoriylik, qiziqish, ehtiyoj asosida o'tkazish kerak.

4. Ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadbirlar mazmuni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotimiz mohiyati bilan hamohang bo'lishi kerak. Tadbir mazmuni ma'lum kompozitsion ko'rinish shakliga keltirilishi uchun undagi bayon etish va ta'sirchan vositalar bir-biri bilan uyg'unlashtiriladi. Aks holda tadbir mazmuni ta'sirsiz, shakli samarasiz bo'lib qoladi. Har bir tadbir ta'limiy-tarbiyaviy xarakterga ega bo'lish bilan birga, xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan madaniy-ma'rifiy manbalarni ommalashtirishda targ'ibot-tashviqot qilish xarakteriga ham ega. Tadbirlarni mazmunan boyitish, turli vositalardan unumli foydalanish tadbirlarning ta'sirchanligini, samaradorligini oshiradi. Shu yo'sinda ta'sir kuchi yuqori bo'lgan ma'naviy-estetik targ'ibot-tashviqot vujudga keladi.

5. Har qanday tadbirda o'quvchilar bevosita yoki bilvosita ishtirok etadilar. Ya'ni tadbirni tayyorlashda ko'maklashadilar, qatnashadilar, tomosha qiladilar, jonli muloqotga kirishadi. Tadbirda beriladigan ilmiy, tarixiy, ma'naviy, adabiy-badiiy ma'lumotlar tasirchan vositalar orqali (she'riy chiqishlar, prozaik monologlar, qo'shiq va raqslar, texnik vositalar yordamida namoyish etiladigan lavhalar) tadbir ishtirokchilariga yetkazilgan taqdirda u o'quvchining ma'naviy dunyosiga kuchli ta'sir qiladi.

Xullas, o'quvchi-yoshlarning ma'naviyati, madaniyati, ilmiy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar jarayonida bolalarimiz turli ishlarni amalga oshiradilar. Mustaqil o'qiydilar, yod oladilar, yozadilar, tahlil qiladilar, izlanadilar, xulosa chiqaradilar, tadbir rejasi va ssenariysi ustida ish olib boradilar, do'stlari bilan muhokama qiladilar va hokazo. Mana shu jarayonning barcha bosqichlari zamiriga o'quvchi-yoshlarda milliy g'ururni rivojlantirish g'oyasi singdirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4467-son Qarori 2019-yil 30-sentabr.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y. 41-son, 543-modda.*

3. *Pulatov Sh. Ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. O'quv-qo'llanma. Tafakkur nashriyoti. – T., 2012.*

4. *Yo'ldoshev J.G'. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari (yoxud o'qituvchi bo'lish osonmi?). – T.: O'qituvchi, 1998, - 87-b.*